

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## FARG‘ONA VILOYATI SHAROITIDA ANORNING KENG TARQALGAN ZARARKUNANDALARIGA UYG‘UNLASHGAN HIMOYA QILISH USULIDA SAMARALI QARSHI KURASHISH

Qodirov Jaloliddin Jamoliddin o‘g‘li

qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta o‘qituvchisi

Uzumchilik, mekachilik va sabzavotchilik qo‘shma fakulteti

Aholi tomorqalardan samarali foydalanish kafedrası

Erkaboyev Obbasbek Xayrullo o‘g‘li

IV-bosqich talabasi

Farg‘ona Davlat Universiteti.

### Annotasiya:

Uygunlashgan himoya qilishning asosiy vazifalari hosilni iqtisodiy, ekologik va ishlatilgan zaharlarning osimlik mahsulotlaridagi qoldiq miqdori talablariga javob beradigan tarzda himoya qilishdir. O‘simliklarni uygunlashgan himoya qilishga har tomonlama yondoshish so‘zidan kelib chiqqan davrdan boshlab turli tuman ozgarishlarga uchradi. Dastlabki paytda uygunlashtirilgan kurash biologik va kimyoviy kurashni birgalikda qollash usuli shaklida tushunilgan.

**Tayanch iboralar:** Anor, anor mevaxo‘ri, zararkunanda hasharot, Agrotexnik usul, biologik usul, kimyoviy kurash, uyg‘unlashgan ximoya.

### Abstract

The main tasks of integrated protection are to protect the crop in a way that meets the requirements of economic, ecological and residual amount of used poisons in plant products. Since the beginning of the comprehensive approach to the protection of plants, various districts have.

**Keywords;** At the beginning, adaptive control was understood as a method of combining biological and chemical control.

Keyingi yillarda Anor ekin maydonlari ortishi uning mevasiga ichki va tashqi bozorda talabning yuqori bo‘lishi, anordan yuqori va sifatli hosil olishni taqozo etmoqda. Bog‘bon sohibkorlar anor yetishtirishning yangi zamonaviy



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

texnologiyalarini hamda yuqori sifatli navlarini tatbiq etib, ulardan mo'l hosil olinmoqda. Ichki va tashqi bozorlarga sifatli anor mevalari yetkazib berilmoqda.

Farg'ona viloyati Quva tumanida anor yetishtirish bo'yicha boy tajriba to'plangan va bu tajribalarga asoslanib viloyatning boshqa tumanlarida ham yangidan anorzorlar barpo etilmoqda. Lekin bog'bon sohibkorlar oldida anorning zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish va sifatli mo'l hosil yetishtirish muammosi ham yil sayin ortib bormoqda.

Osimliklarni osish rivojlanish hosildorligiga zararkunandalarni tasiri. Dunyo anorchiligida shu jumladan viloyatimizning turli tuproq iqlim sharoitida o'suvchi anor osimligini yer osti va yer ustki qisimlarini zararlovchi zararkunandalardan himoya qilishimiz uchun biz avvalo kasalliklarga chidamli anor navlaridan foydalanishimiz, zararkunanda hasharotlarni biologiyasini yaxshi bilishligimiz va ularga qarshi kurashish uchun samarali usullardan foydalanishimiz lozim. O'simliklarni zararli organizmlardan uygunlashgan holda himoya qilish oz oldiga zararkunanda va kasallik qozgatuvchilarini iqtisodiy zarar keltirish meyorini chegarasida saqlashning imkoni bolgan barcha (agrotexnik, fizik, mexanik, biologik, karantin, va hokazo) usullarini tatbiq etilishi lozim. Bularni barchasini birlashgan holda anor o'simligini uygunlashgan himoya qilish (integrated pest suppression) zararli organizmlarni entomofaglaridan va boshqa usullardan foydalangan holda yoqotish eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Shu maqsadda quva tumanidagi Ergashev Shavkatjon nomli fermer xo'jaligining bir gektarlik qizil shirindona navli 6 yoshli anorzorda quyidagi tajribalarni o'tkazdik; Biz Zararkunanda hasharotlar tabiiy holda o'sib rivojlanayotgan anorlarga qanchalik darajada zararlashi va kimyoviy preparatlar bilan dorilangan anorlarga qanchalik darajada shikast yetkazishni o'rganish maqsadida bog'da kuzatish ishlarini olib bordik. Anorzorni uch guruhga bo'lib ularga quyidagi usulda tajriba olib bordik.

Birinchi usul. Anorzorda xashorotlarga qarashi hech qanday kimyoviy preparatlardan foydalanilmadi. Faqatgina agrotexnik tadbirlardan tadbirlar qo'llanildi. Bunda anorga yaxob suvi berildi va zararlangan anor mevalari va shoxlari anorzordan olib chiqib yo'qotildi.

Ikkinchi usulida. Anorzorga qishki yaxob suvi berildi. Zararlangan shox-shabbalar anorzordan olib chiqib tashlandi. Erta bahorda oltingugurtli 0.5-1%li ISO suyuqligi bilan ishlov berildi. Anor qator oralariga agrotexnik tadbirlar amalga oshirildi, anor tuplarini yashil butash (zelyonnaya obreska) qilgandan so'ng, anor mevalarini uchki qismi tozalanib peritroid eritmasini tabiiy loy bilan aralashmasi bilan to'ldirib



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

chiqildi. Bu tadbirning ahamiyati zararkunanda qurtning kapalagi anor tumshuqchasiga kirib tuxum qo'yishining oldi olinadi. Zararkunandalarga qarshi oltinko'z entomofagi erta bahorda anor barglari paydo bo'lgach o'simlik bitlari(shiralar)ga qarshi anorzorga tarqatib chiqildi. Bu tadbir mavsum davomida 20 kun oralatib 3 marotaba takrorlandi. Zararkunandalarga qarshi kimyoviy preparatlardan foydalanildi, bunda "karate zeon"(1g/1l) Kimyoviy preparati b-n ishlov berildi. Bir gektar anorzorga 400l(1ga/400g) suv sarflandi. Kimyoviy preparat mavsum davomida bir marotaba ishlatildi. Agar ko'p qo'llanilsa zararkunandalarning tabiiy kushandalarining nobud bo'lishiga olib keladi.

Uchinchi usulda esa kimyoviy preparatlar - Dimilin(30g/ga), talstar (0.3-0.6l/ga) danadim(1-3l/ga) bilan tinimsiz ishlov berib borildi.

Birinchi usulda anor mevalarining zararlanish holati 25-30%ni tashkil qildi. Ikkinchi usulda esa zararlanish ko'rsatkichi 10%dan oshmadi. Uchinchi kurash usulida zararlanish 11,5 %ni tashkil etdi. Tajribalardan shuni ko'rsatadiki. Avvalo Agrotexnik tadbirlarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish. Namlikni bir me'yorda ushlab turish. Himoya zonasini tashkil etish. Feramon tutqichlar yordamida oldidan pragno'z qilib borish va biologik usuldan foydalanish eng samarali usull ekanliga yana bir marta guvoh bo'ldik. Kimyoviy preparatlar qo'lash natijasida uchinchi usulda kasalliklar bilan ham kasallanish darajasi past bo'lganini ma'lum qildik. Shunidek bu usulda mavsum davomida 3-4 marotaba kimyoviy preparatlarni sepish qo'shimcha mehnat va mablag'ni sarflash bilan bir qatorda atrof muhitga – foydali hasharotlarga yuqori bo'lganligi bilan, iqtisodiy samaradorligi jihatidan 2 variantimizdan past bo'lganligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib uygunlashgan himoya qilish usuli hosilni iqtisodiy, ekologik va ishlatilgan zaharlarning o'simlik mahsulotlaridagi qoldiq miqdori talablariga javob beradigan tarzda himoya qilib, o'z vaqtida agrotexnik chora tadbirlarni, biologic va mexanik usullarni qo'llash nafaqat iqtisodiy samara balki, eng asosiysi atrof muhitga zararsiz hamda ekologik toza maxsulot yetishtirish imkoniyatini ham berdi. Bunda asosan etibor agrobiotsenozdagi foydali mavjudotlarga ziyon yetkazmaydigan preparatlarni tanlashga, ishlov berish sonini va miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Hozirgi paytda atrof muhitni himoya qilish nuqtay nazardan osimliklarni uygunlashgan himoya qilish eng qulay choradir. Bu tadbir bazi bir zararli turlarni qirib tashlashdan iborat emas, balki atrof muhitga zarar yetkazmaydigan holda ularningsonini eng kam miqdorda saqlab turishni oz oldiga



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

maqsad qilib quyadi. Bunday yondashish osimliklarni himoya qilish ilgari yol qoyilgan pestitsidlarni yoppasiga qo'llash oqibatlarini tugatishga imkon beradi.

Keyinchalik shu narsa aniq bolib qoldiki agrobiotsenozdagi boshqa mavjudotlar rivojlanishini nisbatga olmay turib, alohida turlarga qarshi kurash choralari otkazish mumkin emas ekan. SHu sababli «uygunlashtirilgan kurash» usulida shunday vosita va usullarni qo'llash kerakki ular nafaqat zararli mavjudotlarni oldirsin, balki foydali Hasharotlarning saqlanishini va faolligini oshirsin. Bu kurash yollari oldingilaridan shu bilan farq qiladiki, pestitsidlar bilan ishlov berish kopincha zararkunandalarning aniq miqdorini hisoblamay turib qirib tashlash choralarini o'tkazmaslikni, bu choralarni faqat zararli hasharotlar me'yoridan yuqori bo'lgan taqdirdagina taqozo etadi. O'simlik zararkunandalariga qarshi kurashuvchi kurash choralari parazit va yirtqich hasharotlar va boshqa zararli organizmlar sonini boshqarib turuvchi omillarni hisobga olgan holda otkazish talab qilinadi. Kimyoviy dorilarni ishlatish hajmi kamayganligi sababli, ayrim zararkunandalarning pestitsidlarga bolgan chidamliligi pasaygan, demak sezgirligi ortgan. Har bir ekin oz zararkunandalariga va himoya qilishning ixtisoslashgan xususiyatlariga ega bolganligi sababli, har biri uchun, shu ekinga xos, UHQT yaratilishi lozim. Yaratilgan bunday tizim doimiy bolib qolmay, fan yutuqlariga tayangan holda doim izlanishda, takomillashib turishi shart. SHunday ekan, anor va anjir uchun UHQT umuman tuzil-maganligini nazarda tutib, mavzuning dolzarbligi yana bir bor malum boladi. UHQT ning tarkibiy qismida xavfsiz usul va vositalarni ishlatish hisobiga pestitsidlarni kamroq ishlatib, kozlangan maqsad agrobiotse-nozda oz-ozini boshqarishga (samoregulyatsiya) erishishdir.

Xulosa qilib aytganda, uygunlashgan kurash chorasini zamonaviy tushunchasi shundan iboratki, uning asosiy vazifasi agrobiotsenozdagi populyatsiya orasidagi yoki ular ortasidagi munosabatlarni boshqarib borishdan iborat.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini ximoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Sh.T.Xo'jayev, E.A.Xolmuradov. 2009.
2. O'simliklarni biologik himoya qilish. A.SH.Xamrayev va boshqalar. Toshkent-2014.
3. Farg'ona vodiysida anor ko'chatlarini yetishtirish istiqbollari va usullari. J.Qodirov va boshqalar. 2020 Respublika ilmiy amaliy jurnali.
4. Эффективность резкий крупных клубный картофеля в семеноводстве в



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

условиях Узбекистана. Тенденции развития науки и образования. Рецензируемый научный журнал Самара 2020. Ж.Кодиров.

5. Isag'aliyev, M., Obidov, M., & Matholiqov, R. (2019). Morphogenetic and biogeochemical features of the medicinal capparid spinosa. Scientific journal of the Fergana State University, 2(4), 46-49. <https://scholar.google.com/citations>
6. Matholiqov, R. Argic dasturidan foydalangan holda qishloq xo'jalik yerlarini tahliliy o'rganish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022 yil. <https://scholar.google.com/citations>
7. Маматожиёв, Ш. И., Тожимаматов, Д. Д. У., Камолов, З. В. У., & Холиқов, М. Б. У. (2020). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕССЫ ХРАНЕНИЯ ЗЕРНА И НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА. Universum: технические науки, (12-4 (81)), 75-78.
8. Маматожиёв, Ш. И., Тожимаматов, Д. Д. У., Камолов, З. В. У., & Холиқов, М. Б. У. (2020). ПРЕИМУЩЕСТВА НОВОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ПРИЕМКЕ ЗЕРНА. Universum: технические науки, (12-2 (81)), 96-99.
8. Davronov, Q. A., & Xoliqov, M. B.O', (2021). The effect of grain moisture on grain germination during grain storage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal (11-5), 418-421.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

